

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil 08-avgust 31-sonli buyruqi bilan tasdiqlangan

MORFYETILGAN:


O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura
mutaxassisligining malaka talablari**

Mazkur Malaka talabasi "Oliy ta'lim talabalar to'lar" standart, "Oliy ta'lim talabalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka va mahorat talaka bo'limlari (standart) kashfiy standartlar va kadrlar baharimachilari taklifidagi mas'uliyat o'zlashtirish va raqamli ta'lim yo'riq-natijasi to'lar to'larida.

O'zbekiston Respublikasi huzurida Malaka talabasi natijasi chop etish bo'limi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

TOSHKENT – 2023



ISHLAB CHIQLIGAN:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil "07" 08 dagi 344-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi</i>	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	<i>70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi</i>	4
1.2.1.	<i>70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari</i>	4
1.2.2.	<i>70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari</i>	5
1.2.3.	<i>70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari</i>	6
1.2.4.	<i>70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy vazifalari</i>	6
2.	<i>70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar</i>	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	9
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egalashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	10
2.3.1.	Kvalifikatsiya	11
2.3.2.	<i>70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar</i>	12
2.3.3.	<i>70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi</i>	13
	Bibliografik ma‘lumotlar	14
	Kelishuv varag‘i	15

1. 70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalvriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi

1.2.1. 70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi – O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, O'zbekiston Respublikasi Davlat adabiyot muzeyida, ilmiy-tadqiqot institutlarida,

Respublika baxshichilik markazlarida, O'zR asosiy kutubxonasi, Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona, Folklor va dialektologik arxivlarda, nashriyotlarda, Oliy ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida folklorshunoslik hamda dialektologiya mutaxassisligiga oid kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi;
- matbuot va ommaviy axborot vositalari;
- o'zbek tili;
- til qurilishi, til va nutq birliklari;
- o'zbek tilining taraqqiyot qonuniyatlari;
- O'zbekistondagi lisoniy vaziyat;
- folklor va dialektologiyaning taraqqiyot qonuniyatlari;
- umumfilologik va ijtimoiy fanlar mazmuniga taalluqli bo'lgan turli nutq uslublariga doir asarlar;
- adabiy manbalar;
- lingvistik manbalar;
- folklor lug'ati va qomuslar;
- dialektal lug'at va qomuslar;
- jonli nutq materiallari;
- jonli nutqdan yozib olingan materiallar;
- ommaviy axborot vositalari materiallari.
- umumfilologik va ijtimoiy fanlar mazmuniga taalluqli bo'lgan folklor va dialektologiya bilan bog'liq asarlar;
- o'zbek folklori va o'zbek dialektologiyasi: nazariy va amaliy, sinxron, diaxron, ijtimoiy-madaniy va dialektologik aspektlari;
- ta'lim oluvchilar;
- o'quv metodik adabiyotlar va o'quv jihozlari;
- ta'lim metodi va texnologiyalari;
- mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari jarayoni.

1.2.3. Mutaxassislik bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy-tadqiqot faoliyat;
- ma'naviy-ma'rifiy faoliyat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyat;

- pedagogik faoliyat: Oliy ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti (o'rnatilgan tartibda);
- turli xizmatlar ko'rsatish kabilarni o'z ichiga oladi.

1.2.4. 70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi bitiruvchilari kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limini olishi mumkin.

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- tegishli fan sohalariga oid ilg'or tajribalarni inobatga olgan holda, mutaxassislikka oid yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish;
- kasbiy faoliyatiga mos ilmiy adabiyotlarni, ilmiy tadqiqot loyihalarini va yangi ilmiy natijalarni o'rganish;
- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;
- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy model-larini ishlab chiqish;
- ilmiy-tadqiqot, pedagogik va ilmiy-pedagogik mavzularga mos jurnallar, to'plamlarga maqola va tezislar tayyorlash.
- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumta'lim, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish va tuzish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish; o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish *qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.*

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

- nostandart vaziyatlarda tashkiliy boshqaruv qarorlari qabul qilishi va ushbu qarorlar uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

- nodavlat va notijorat tashkilotlarida, xususiy tadbirkorlik subyektlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchi sifatida faoliyat yuritish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim;

Pedagogik faoliyatda:

- o'zbek folklori va o'zbek dialektologiyasini, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy -nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirish;

- o'zbek folklori va o'zbek dialektologiyasini o'qitishning samarali usullarini chuqur egallashi va undan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- o'qitish metodikasini egallash;

- oliy ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi muassasalarida mutaxassisligiga oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

– gumanitar fanlar sohasi uchun DTS, Malaka talablari, Davlat talablari va boshqa o‘quv-me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish *qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.*

Turli xizmatlar ko‘rsatish:

- mutaxassislikka mos maslahatchilik xizmati;
- ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallash, o‘quvchilar ongiga milliy g‘oya va milliy g‘ururni singdirish;
- o‘zbek folklori va dialektologiyasi tarixini ilmiy o‘rganish, jarayonlarni obyektiv va xolis ilmiylik nuqtayi nazaridan yoritish;
- kutubxonalar, axborot-ressurs markazlari, vaqtli matbuot sahifalari va arxiv ma‘lumotlaridan foydalana olishga oid metodik faoliyatni amalga oshirish;
- pullik ta‘lim xizmati ko‘rsatish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha davlat grantlari va xo‘jalik shartnomalari asosida tadqiqot ishlari boshqa xizmatlarni ko‘rsatish *qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.*

2. 70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi bo‘yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

2.1. Umumiy kompetensiyalariga:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi;
- umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;
- o‘zbek shevalaridagi o‘ziga xos fenitik, leksik, grammatik xususiyatlarni hududiylik asosida o‘zlashtirishi, hududiy dialektal farqlarni bilishi, uni kartalarda aks ettirishni bilishi;
- xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘plash, tahlil qilish, ularni ilmiy asoslay olish;
- xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi badiiyat, sujet, kompozitsiya, ruhiyat tasviri, badiiy tasvir vositalari kabi masalalarni bilish;
- O‘zbek folklorshunosligidagi eng yetakchi mavzular tizimini yaxlit holda o‘rganish;
- o‘zbek folklori materiallarni qiyosiy folklorshunoslik asosida tadqiq etish va ular haqidagi ilmiy bilimlarni berish;
- xalq nasri va qo‘shiqlarida mifologik sujet, obraz va unsurlarning badiiy estetik sathda namoyon bo‘lish yo‘llari ko‘rsatish;
- o‘zbek shevalarining o‘rganilishi tarixiy bosqichlari, M.Qoshg‘ariy va A.Navoiyning tilshunoslikka oid asarlaridan to bugungi kungacha bo‘lgan tarixiy davrda sheva ilmining rivojlanishi, taasarlar tilidagi dialektaltal so‘zlar, ularning

tasnifi, o'sha davr tili leksikasidagi o'ziga xosliklar, fonetik, morfologik xususiyatlar haqida tasavvurini shakllantirish;

– o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

– kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

– xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;

– bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

– pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

– ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi, patent olish uchun biror zarur ishning me'yoriy hujjatlarini tayyorlay olishi;

– davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

– folklorshunoslik va shevashunoslikning nazariy asoslarini bilish;

– xalq og'zaki ijodi va shevashunoslikning ilmiy muammolarini o'rganish; folklor poetikasiv va xalq shevalariga doir qonuniyatlarni ahglash va tadqiqotchilik faoliyatida qo'llay olish;

– o'zbek mifologiyasi va dialektolofiyasi tarixi va taraqqiyot bosqichlarin bilish;

– baxshichilik san'ati va xalq dostonchiligi xususiyatlarini anglash;

– o'zbek shevalaridagi o'ziga xos fonetik, leksik grammatik xususiyatlarni hududiylik asosida o'zlashtirish, sheva vakillari nutqini dialektal matnlar sifatida yoza olish, hududiy dialektal farqlarni bilish;

– o'zbek shevalari leksikasi va leksikografiyasi, areal lingvistikaning nazariy bilim va amaliy tajribalariga ega bo'lish;

– maxsus fanlarni o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi, pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

– Mahmud Koshg'ariyning dialektologik tadqiqotining nazariy asoslari, tahlil usullari va metodlari bilan tanishtirish, Koshg'ariy ilmiy merosi va zamonaviy lug'atshunoslik aloqalarini ilmiy anglash;

– shevashunoslikning nazariy asoslarini bilishi, fan tarixi va taraqqiyoti masalalarini o‘zlashtirgan bo‘lishi, shevalarni tasnif qilish tarixi va tamoyillarini ilmiy bilishi;

– umumiylik va xususiylik kategoriyasi, tilshunoslikda va sheva ilmida umumiylik va xususiylik tushunchasining anglanishi, o‘zbek shevalari fonetik, leksik, grammatik ko‘rsatkichlarning umumiy va xususiy ko‘rinishlarini farqlay olishi;

– ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– ta‘lim muassasalarida, *OTM* tizimining mos o‘quv muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini, o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

– zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o‘quv mashg‘ulotlarini ishlab chiqish va o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

– o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni shakllantirish va tuzish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

– muloqot madaniyatini egallagan bo‘lishi, mantiqiy fikrlay olish, og‘zaki va yozma nutqini dalillagan holda aniq, to‘g‘ri bayon qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, ilmiy faoliyatni amalga oshirish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – 70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta‘minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – mutaxassislik doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, magistrning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha quyidagi ilmiy faoliyat o‘tkaziladi:

Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish – magistrlik mavzusi doirasida ilmiy-nazariy adabiyotlar bilan tanishadi, ilmiy-tadqiqot ishini olib boradi.

Ilmiy-pedagogik ish – magistrning kelgusida oliy ta’lim va quyi ta’limda pedagog sifatida faoliyat yuritishi hisobga olinib, dars jarayonini kuzatadi, bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – magistrning nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Shu maqsadda ilmiy-tadqiqot muassasalarida amaliyot olib boradi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: filolog, folklorshunos-dialektolog (tadqiqotchi)

2.3.2. 70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1500	50
Tanlov fanlar	300	10
Ilmiy faoliyat	1800	60
Jami	3600	120

2.3.3. 70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari va ilmiy faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Jami kredit	semestr
1.00		Majburiy fanlar	1500	50	
1.01	ITM 1 05	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	150	5	1

1.02	XOIP 1 05	Xalq og'zaki ijodi poetikasi	150	5	1
1.03	FN 1,2 10	Folklorshunoslik nazariyasi	300	10	1,2
1.04	AL 1,2 09	Areallingvistika	270	9	1,2
1.05	O'SHTT 2,3 11	O'zbek shevalari tadqiqotlari tarixi	330	11	2,3
1.06	MFO'M 2 04	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.07	O'M 3 06	O'zbek mifologiyasi	180	6	3
2.00		Tanlov fanlari	300	10	
2.00		<i>Tanlov fanlari (2 ta fan)</i>	300	10	1,2
		Jami	1800	60	
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILGAN:

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**



Rektor Sh.Sirojiddinov

2023 yil « 10 » 07

M.O'.

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi**

Direktor Sh.Yakubov

2023 -yil « 07 » 08

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi
Davlat adabiyot muzeyi**

Direktor J. Eshonqulov

2023 -yil « 10 » 07

M.O'.

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi O'zbek tili,
adabiyoti va folklori instituti**

Direktor N.Mahmudov

2023 -yil « 10 » 07

M.O'.

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi
malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim
muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“10” 04 2023 yil

Biz, quyida imzo chekuvchilar – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori N.Mahmudov, O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi direktori J.Eshonqulov bilan birgalikda ToShDO‘TAUda ishlab chiqilgan quyidagi **70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya magistratura mutaxassisligi** malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 O‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi PF-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori**

Sh.Sirojiddinov



**O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti direktori**

N.Mahmudov

**O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi
davlat adabiyot muzeyi direktori**

J.Eshonqulov

